

## ARABISTON YARIMOROLIDA YANGI DINNING VUJUDGA KELISHI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14043395>

**Xasanov Ulug'bekxo'ja Hoshimxo'ja o'g'li**

*Nizomiy davlat pedagogika universiteti 2-bosqich talabasi*

### **Annotatsiya**

Ushbu maqolada VI-XI asrlardagi Arabiston yarimorolining ijtimoiy ahvoli tahlil qilingan. Bu davrdagi Arabiston yarimolidagi ijtimoiy -madaniy hayot ,yangi dinning paydo bo'lishi , Muhammad (s.a.v.) tomonidan yangi dinning yoyilishi, Arabiston yarimoroli aholisi tomonidan yangi dinning qanday qarshi olinishi kabi masalalar ochib berishga harakat qilingan .

### **Kalit so'zlar**

Arabiston yarimoroli, Himyar podsholigi, Muhammad (s.a.v), Abdulloh, Abu Bakr.

Arabiston yarimoroli maydoni jihatidan Yevropaning 4/1 qismini egallagan bo'lib ,Arabiston yarimorolining katta qismi suvsiz cho'llardan iboratdir. Yangi dindan oldin ozchilik aholi o'troq hayot bilan yashar dehqonchilik bilan shug'ullanar edi .Aksincha ko'pchiligi ko'chmanchi qabila ya'ni badaviylardan iborat bo'lgan. Arabistonda dehqonchilik uchun qulay hududi janubiy-g'arbiy qismi hisoblangan.U yerda birini o'rniga , ikkinchisini olib kelgan quldorlik davlati vujudga kelgan (Yaman).Yarim orolning Qizil dengizga cho'zilgan joyi dehqonchilik uchun qulay bo'lgan. Arablarda sug'oriladigan yerlar kam bo'lganligi bois, tog'li hududlarda chorvachilik bilan shug'ullangan.Arabiston janubidagi Xabash va Fors istilolari tabiiy ofatlar tufayli Marib to'g'oni buzilib ketgan, natijada sug'orish tizimi halokatga yuz tutgan. To'g'onning buzilishi oqibatida Arabistonning janubidagi qabilalar shimol va markazga ko'chib ketishining sababi yaylov va yerlarning yaroqsizligi bo'lgan<sup>25</sup>. Ko'chib ketish natijasida, tuyaboqarlik va chorvachilik avj oldi. Ular o'z navbatida tuya go'shti va suti bilan oziqlanishgan,yungidan mato va qoplar to'qib,terisidan poyabzal tikishgan. Hatto tuyaning chiqindisidan kasmetik va yoqilg'i sifatida foydalanishgan va ular tuyalar oldi-sottisi bilan ham shug'ullanishgan.Arabistonning janubida mayda-mayda podsholiklar bo'lishiga qaramasdan ,forslar istilosi natijasida arablarning ijtimoiy

<sup>25</sup> Qodirov Zikirilloh Musoxonovich .Arab mamlakatlari kitobi 2009

hayotiga zardushtiylik dini kirib kelgan. Shu jumladan xristianlik ,monofizitlik, nestorianlik shaklida qabul qilishgan edi. Arabistonning shimoliy va g'arbiy vohalarida yahudiylik va xristianlik bir-biri bilan raqobatda bo'lgan. Hatto 517-yilda Yamandagi Himyar podsholigi yahudiylik dinini rasmiy din deb e'lon qildi<sup>26</sup>.

VI asr oxiri - VII asr boshlarida Arabistonning siyosiy-iqtisodiy va diniy markazi Makka shahri ham din rivojida yetakchilik qilar edi. VII asr boshlari, taxmiman, 610-yil boshlarida Islom dini vujudga keldi. Payg'ambarimiz (s.a.v)ga vahiy kelgan yil, Makkaga yaqin bo'lgan Hiro g'orida (birinchi vahiy) Jabroil (a.s) u zotga, odamlarga haq Allohning gapini o'qi (arabcha iqror) deb buyurdi. Bu vaqtga kelib Arabistonda xaniflar paydo bo'ldi. Xaniflar arablar orasida keng tarqalgan bo'lib, ichkilik, qimorbozlik va boshqa zararli illatlarga kurashar edi. Ular bir joyda turmay darvesh, qalandarlar tarzida hayot kechirgan. Arablarda yana bir muammo ya'ni tabaqalanish, boy va kambag'allarni munosabatlarini hal qilishni talab qildi. Ana shu vaziyatda yangi din-Islom arablarni birlashtiruvchi omilga aylandi. Shunday bir sharoitda quraysh qabilasining hoshim urug'idan bo'lmish uncha badavlat bo'lmagan savdogar Abdullohning o'g'li Muhammad (s.a.v) yangi din asoschisi va payg'ambari sifatida maydonga chiqdi. Payg'ambar taxmiman 570-yilda (ayrim manbalarda 571-yil) dunyoga kelgan<sup>27</sup>. Otasi Abdulloh Muhammad (s.a.v) tug'ilmasidan 2 oy oldin vafot etdilar. Onalari Omina esa 6 yoshida hayotda ko'z yumdilar. Bolani Makkaga Ummu Ayman olib keldi va Bobosining qo'lga topshirdi. Muhammad (s.a.v) 8yoshida bobosi Abdumuttalibning vafotidan so'ng amakisi Abu Tolibning qaramog'ida qoladi<sup>28</sup>.

Abu Tolib o'zi kambag'al bo'lishiga qaramay nihoyatda saxovatli edi . U Muhammad (s.a.v) ni farzandlariga qaraganda ko'proq sevardi va yaxshi ko'rganidan ko'proq yonida olib yurardi. Muhammad 12 yoshga to'lganda Abu Tolib Shom (Suriya) ga olib ketadi. Karvon Shom yaqinidagi Busro degan joyga yetib boradi . Shu yerda Buhayro ismli rohib yashar edi. Bu masihiy dini olimi Muhammadga ko'zi tushgan zahoti nasroniy dinidagi kitoblarda o'qigan ,ma'lumotlariga asoslanib Muhammadda payg'ambarlik alomatlarini sezadi va uni yahudiylar ko'zidan asrashni tavsiya qiladi. Abu Tolib tezda Muhammadni olib Makkaga qaytib ketadi. Shu tariqa Muhammad 25 yoshida Xadicha Bint Xuvaylit ismli ayolga uylanadilar. 40 yoshga to'lgach "Alloh taolo "uni payg'ambar bo'lishini ixtiyor etdi. Vahiy kelishidan avval sodiq tushlarni ko'rishi bilan

<sup>26</sup> Profesor. B.F. Semenov "O'rta asrlar tairix"

<sup>27</sup> Muhammad Kamol "Payg'ambarlar tarixi yangi asr avlodi " 2003 4- bet

<sup>28</sup> Alixonto'ra Sag'uninyning "Tarixiy Muhammadiy"

boshlandi. Tushlarida nimani ko'rsa shu narsa o'ngida ham ko'rar edi. Vahiy onlari yaqinlashgach Muhammad xilvatda bo'lishni odat qiladi. Ko'pincha Hiro g'orida vaqt o'tkazar hatto tunlari bilan "Ibrohim alayhissalom" diniga ibodat qilib o'tirar edi. Shu kunlarining birida 610- yil Hiro g'orida "Jabroil alayhissalom" Muhammadga vahiy keltirib "O'qi" dedi, Muhammad "men o'qishni bilmayman" dedi "Jabroil alayhissalom" uni ko'tarib siqib qo'ydi<sup>29</sup>. Yana "O'qi" dedi Muhammad yana so'zini takrorladi. Shunda "Jabroil alayhissalom" unga "Alaq" surasining bir necha oyatini o'qib eshittirdi<sup>30</sup>. Bu Muhammadning qalbida o'rnashib qoldi. Bu holatdan ajablanib qo'rqgan Muhammad Xadicha oldiga boradi. Xadicha "Injil" ni ilmini yaxshi bilgan nasroniy bo'lgan amakisining o'g'li keksa Baroqa Ibn Vanfal huzuriga boshlab boradi. Unga bo'lgan voqeani aytib beradi. Senga katta ma'suliyat tushibti va xursand bo'lib bu "Muso alayhissalom"ning oldiga kelgan farishta kelganligini aytadi. Islomni birinchi yarishin davat etadi. Oradan 3 yil o'tgach oshkorona davat qilishadi. Bundan xabar topgan Makka Qurayshlari islomni qabul qilgan musulmonlarni turli amallar bilan qiynay boshlaydi. Xususan kaltaklashadi, badanlariga temir qizdirib bosishardi. Azoblanganlar orasida Bilol Bin Rabox bor edi. Bundan foyda olmagach oxir oqibat Muhammadga suiqasd qilishadi. Bundan ham naf chiqmay. Payg'ambarimiz qabilalari "Banni Hoshim" Banni Abdumuttalib" urug'larini har tomondan qamal qilishadi. Ular qiz olish, qiz berishni savdo-sotiq qilish, non-suv berishni qati'an man qilishadi. Bu holat 3 yil davom etdi. Shundan so'ng xayrlashuv Haji safari qildilar safardan qaytgach betob bo'ldilar va hijratning 11- sanasida ularning ruhi poklari muborak jasatlarini tark etdi. Shu tariqa milodiy 632-yil taxminan hozirgi iyul oyida vafot qildilar.

Muhammad vafotidan so'ng uning yaqin izdoshi va qaynotasi Abu Bakr ummat rahnomasiga aylanadi. Muhojir va Makkalik savdogar tariqasida Abu Bakr qurayshiylar ustuvor mavqeyini saqlab qoldi va bu esa Madinalik ansorlar noroziligini keltirib chiqardi. Abu Bakr Arabiston qabilalar orasida islomni tarqatish siyosiyatini davom ettirdi, binobarin ana shunday qabilalardan ko'chiligi islom dini haqida tasavvurga ega bo'lmagan avvalgidek (mushriklar), xristianlik, haniflikka e'tiqod qilgan holda Madinaga faqat siyosiy jihatdan bo'ysunar edi, xolos. Binobarin Suriya, Falastin, va Misr aholi musulmonlarga mutloqo qarshilik ko'rsatmadi buning zaminida esa ularning musulmon hokimiyatini vizantiyaliklarning og'ir zulm- istibdodidan afzal ko'rishi turar edi. Shuning uchun ham ular arablarga qarshi kurashmadilar balki arablar tarafiga o'tib

<sup>29</sup> Hasanov.A.A "Makka va Madina tarixi" 1992-yil

<sup>30</sup> Alixonto'ra Sag'unining "Tarixiy Muhammadiy"

ketdilar. Xristianlikka e'tiqod qilib kelayotgan hamda Vizantiya va Eron mulklari o'rtasidagi chegarada azal-azaldan yaxshab kelayotgan arab qabilalari ham Arabistondan kelgan o'z birodarlari safiga oshkora qoshildilar. VII asrning 2-yarmiga kelib istilolar sur'ati pasayib ketti bu hol xalifalikdagi birinchi diniy-siyosiy inqiroz bilan izohlandi. Ilk islom jamoati tenglik an'analari va qabilalar harbiy demokratiyasi urf-odatlarini inobatga olgan Abu Bakr va Umar o'rniga xalifa taxtini bir mahallar Muhammad(s.a.v) ga qarshi turgan badavlat Umayya aymog'ining nomoyondasi Usmon egallaydi<sup>31</sup>. Ammo 630- yilda keyin istilolar davomida ancha jiddiy boyigan va muhim lavozimlarni egallagan, shu jumladan Suriyani boshqaruviga kiritgan holda ayniq musulmon elitesini peshqadamlari qatoriga chiqib olgan edi. Xalifa Usmon islomga qadar badavlat savdogar, sudxo'r va quldor bo'lgan Sahobalar bilan chambarchas bog'langan nihoyatda odiy turmush kechirgan va poraxo'rlikni qoralagan salafi xalifa Umarning tamomila teskarisini gavdalantirgan edi. Boz ustiga Usmon Umarning shubhali vaziyatda fors qul tomonidan o'ldirilishidan keyin xalifa bo'lgan edi. Oddiy arablar ayniqsa Umayya aymog'ini yomon ko'radigan sahobalar va Usmon tomonidan hokimiyatdan chetlashtirilgan Umar tarafdorlari musulmon Ummati tabaqalanishi va undan badavlat oliy toifa ajralib chiqishidan norozi edi. Uning dushmanlari Muhammad(s.a.v) ning amakivachchasi va kuyovi, payg'ambarning sevimli qizi Fotimaning eri Ali tevaragida birlashdilar. Ularni "Shiot" Ali (so'zima so'z tarjima qilganda "Ali partiyasi" "Ali guruhi" keyinchalik esa shialar deb atay boshladilar. Ularning asosiy tamoyili umomlik payg'ambarning eng yaqin qarindoshi sifatida Ali avlodida va payg'ambarning Fotimadan tarqalgan avlodlari Aloviylar avlodida vorisiylik tariqasida davom etishi edi. Usmondan yalpu norozilik Alining mashhurligi ortib borishiga imkoniyat tug'dirdi. O'z muxoliflari guruhi yo'q qilib tashlashga urunib ko'rgan xalifa Usmon 656 yilda ular tomonidan o'ldirildi. Ali xalifa deb e'lon qilibdi. Ammo Usmon hukmronlik qilgan 12 yil davomida boyib ketgan sahobalarning bir qismi Alini tan olmadi, o'ldirilgan xalifaning qarindoshi Suriyani boshqarib turgan Muoviyaga esa, Alini Usmonni o'ldirgan qotillar bilan til biriktirganlikda aybladi, Ali muzokaralarga rozi bo'ldi, bu esa uning tarafdorlarining guruhlari parchalanishga sabab bo'ldi. Boshboshdoqlik va tartibsizliklar natijasida Xalifalik amalda uchta asosiy va bir qator ikkinchi darajali markazlarga bo'linib ketdi Xalifa Ali-Iroqda, Muoviya-Suriyada hukmronlik qilar, amalda 20 yildan beri Misrni boshqarib kelayotgan lashkarboshi Amr Ibn al-Oss esa payt poylab turar edi. O'z odamini xalifa taxtiga ko'tarishga intilgan xorijiy har

<sup>31</sup> O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi matbaa birlashmasi Toshkent-2021

uchalasinini ham o'ldirish qaror qilgan edi. Ammo ular 661-yil yanvarida Kufada o'ldirilgan Alini chetlashtirishga moyassar bo'ldi xolos.

Xulosa:Arablar Islomdan oldin bir qancha dinlarga e'tiqod qilganlar. Ular orasida Budparastlik, zardushtiylik, nasroniylik, yahudiylik dinlari bor edi. Shu jumladan, Islom paydo bo'lishidan oldin arab ma'daniyatida diniy, ijtimoiy va siyosiy jihatdan ko'p qirrali e'tiqodlar ham mavjud bo'lgan. Arabistonning tarixida va bugungi kunda Islom dini muhim o'rin tutadi. Islom Arabistonda va undagi jamiyatga madaniy va siyosiy jihatdan ta'sir ko'rsatgan. Islom dini o'z navbatida Arabistonning madaniyatini shakllantirishda muhim o'rin tutadi. Chunki, jamiyatdagi odob-axloq qoidalari, ta'lim va kundalik hayot Qur'on va Hadis asosida quriladi. Yana bir jihat, Saudiya Arabistonida davlat va din birlashgan, ya'ni davlat shariat asosida boshqariladi. Umuman olganda, Islom dini arablar hayotining har bir sohasiga chuqur singib ketgan va bugungi kunda ham davlatning har bir sohasida ta'sirini ko'rsatishda davom etmoqda.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Qodirov Zikirilloh Musoxonovich .Arab mamlakatlari kitobi 2009 189-202 betlar
  2. Profesor. B.F. Semenov "O'rta asrlar tairix" 134-137-141 betlar
  3. Muhammad Kamol "Payg'ambarlar tarixi yangi asr avlodi " 2003 4-bet
  4. Hasanov.A.A "Makka va Madina tarixi" 1992-yil 40-47 betlar
  5. O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi matbaa birlashmasi Toshkent-2021 Abbas Ahmad, Ibrohim Nurulloh "Payg'ambar tarixi 23 - 105 betlar
  6. "Shayx Zohidxon Qodir Otaxon o'g'li" 102-106-110 betlar
  7. " Payg'ambarlar tarixi " Abdurashid Zohid 66-78 betlar
  8. Alixonto'ra Sag'unining "Tarixiy Muhammadiy" 9-10-18-28 betlar
- Internet saytlari:
- a. [www.ziyouz.com](http://www.ziyouz.com) kutubxonasi
  - b. [www.viki.com](http://www.viki.com) kutubxonasi
  - c. [www.uzkitob.com](http://www.uzkitob.com) kutubxonasi